

"HAQIQATNI BO'YASHNI ISTAMAGAN IJODKOR"

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
2-bosqich talabasi Turaqulova Zarina

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligiga yangi ruh va tabiiy samimiyat olib kirgan ijodkorlardan biridir."

Abdulla Qahhor.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning hayoti, ijodiy faoliyati va o'zbek adabiyotidagi o'rni yoritib beriladi. Unda adibning hikoya, qissa va romanlari orqali inson ruhiyati, jamiyat muammolari hamda tabiat tasviri qanday badiiy mahorat bilan aks ettirilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining ko'pchilikka kamroq ma'lum bo'lgan ayrim asarlari, jumladan "18 ga kirmagan kim bor" kabi asarlariga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Maqolada adibning hayotiy qarashlari, inson va jamiyat haqidagi fikrlari, shuningdek uning dunyoqarashi va ijodida aks etgan ma'naviy-g'oyaviy tamoyillar ham ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Shukur Xolmirzayev, o'zbek nasri, tabiat va inson munosabati, badiiy mahurat, inson ruhiyati, yoshlar hayoti, risola, adabiy meros.*

KIRISH

O'zbek nasrida hayot haqiqatini sodda, samimiy va ta'sirchan tarzda tasvirlay olgan ijodkorlardan biri — Shukur Xolmirzayev hisoblanadi. Shukur Xolmirzayev 1940-yili Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tavallud topgan. U o'rta maktabni tugatgach, Toshkent davlat universitetida tahsil oldi. Uning ijodiy faoliyati o'quvchilik yillaridayoq boshlangan. Yozuvchi shu kungacha kitobxonlarga juda ko'plab hikoyalar, bir necha qissa va romanlar taqdim etgan. Uning ilk qissasi "**Oq o'tli**"²² bo'lib, unda tog' bolalarining hayoti tasvirlangan. Adibning talabalik davrida yozilgan "**To'lqinlar**"²³ (1963) povesti zamondoshlarimizning murakkab taqdirini tasvirlagani hamda o'ziga xos badiiy mahorati bilan mashhur yozuvchi Abdulla Qahhorning²⁴ e'tiborini tortgan. Ulkan adib yosh ijodkor Shukurga maktub yo'llab, uning ijodini samimiy qutlagan edi. Uning hikoya va qissalarida inson qalbining nozik kechinmalari, tabiat go'zalligi va jamiyat muammolari chuqur aks etadi. Shu sababli yozuvchi o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub va boy ijodiy meros qoldirgan.

²² [SHukur Xolmirzayev hikoyalari to'plami. Shukur Xolmirzayev tarjimai holi](#)

²³ [Ziyo istagan qalblar uchun! - Shukur Xolmirzayev \(1940-2005\)](#)

²⁴ [Abdulla Qahhor o'g'itlari & Shukur Xolmirzayev. Abdulla Qahhorni eslab | Xurshid Davron kutubxonasi](#)

Shukur Xolmirzayev ijodining muhim bir qismi tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni badiiy jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Adib bu boradagi qarashlarini o'z xotiralarida ham samimiy tarzda ifoda etadi:

“Men Boysun tumanida tug'ilganman. Boysun tog'li joy. O'n ikki yoshimda yolg'iz o'zim miltiq ko'tarib ovga chiqib ketardim. Ochig'ini aytganda, biroz qaysar ham edim. Lekin bir narsani juda yaxshi ko'rardim — har bir masalaning mohiyatini tushunishga intilardim”.

Bu fikrlardan ko'rinadiki, **1970-yillarning boshlarida**, ya'ni yozuvchining ijodiy qarashlari hali to'liq shakllanib ulgurmagani davrda ham u voqelikni badiiy idrok etish yo'llarini izlay boshlagan edi. Adib inson hayoti va yashash tarzini tabiat bilan chambarchas bog'liq holda tasavvur qiladi. Uning fikricha, inson hayotining abadiy manbai ham aynan tabiat bilan uyg'unlikdadir. Yozuvchi bunday xulosaga Surxon vohasining qadimgi aholisi — baqtriyaliklarning turmush tarzini kuzatish orqali keladi. U bu o'lkaning qadimgi xalqlari tabiatni ulug' ne'mat sifatida qadrlab, unga ehtirom bilan qaraganini anglaydi. Shu sababli adib ijodida tabiat nafaqat manzara, balki inson hayoti va ruhiyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo'ladi. Shukur Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag'ishlangan hikoyalarning bir qismida tabiatning betakror va maftunkor go'zalligi tasvirlanadi. Boshqa asarlarida esa yozuvchi tabiatga nisbatan beparvo va yovuz munosabatni, uni talon-toroj qilish kabi holatlarni keskin tanqid qiladi. Ana shunday hikoyalarda adib tabiat hodisalarini o'ziga xos badiiy vosita sifatida qo'llaydi. U tabiat manzaralari va turli hodisalardan ma'lum ma'noda “sovuq tasvirlar” yaratib, ular orqali chuqur badiiy g'oyani ifoda etishga erishadi. Shu tariqa yozuvchi tabiatni nafaqat go'zallik timsoli, balki insonning ma'naviy holati va jamiyatdagi muammolarni yorituvchi muhim badiiy unsur sifatida tasvirlaydi.

Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub **“O'n sakkizga kirmagan kim bor?”** qissasi 1964-yilda yozilgan bo'lib, u o'zbek adabiyotidagi eng e'tiborli qissalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar o'tgan asrning oltmishinchi yillarida yaratilgan o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur qissa yigirma besh yoshli yosh yozuvchiga o'zbek kitobxonlari orasida katta shuhrat keltirgan. Bu mashhur muhabbat qissasini o'qimagan yoki hech bo'lmaganda uning nomini eshitmagan kitobxonni topish qiyin. Asarda muhabbat, sadoqat, adashish va qismat, hayotga intilish hamda yoshlar xarakterining shakllanishi kabi muhim hayotiy masalalar badiiy tarzda yoritilgan. Shu sababli ham ushbu qissa yaratilganidan buyon deyarli yarim asr davomida yosh kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan o'qilib kelinmoqda. Shukur Xolmirzayev ijodida inson qalbi va uning taqdiri doimo markaziy o'rinda turadi. Adibning o'zi ham bu haqda samimiy tarzda shunday degan edi:

“«O'n sakkizga kirmagan kim bor?»dan keyin yetti yil yozmay ketganman. Dunyo adabiyotiga ro'para bo'ldim. Hind, fransuz, ingliz, qisman italyan adabiyotini yaxshi ko'rdim. Eng yosh adabiyot – Amerikani yaxshi ko'rib o'qidim. Lotin Amerikasigacha

bordim. Shularni ko'rganimdan so'ng qaragam... siyosiy tovlamachiliklar, millatchilik, rasizm, bosqinchiliklar, shovinizmlar o'tar ekan, inson qolaverar ekan. Shunga shon-sharaflar bo'lsin! O'shanda siyosatga, siyosiy ko'rsatmalarga xizmat qilmaslikka aqlim yetgan edi. Sening mahkumiyating, qismating – insonni aks ettirish. Odam qalbiga quloq solish kerak...”²⁵

Bu so'zlar adibning ijodiy qarashlari va hayot falsafasini yaqqol ko'rsatadi. U turli xalqlar adabiyoti bilan tanishib, insoniyat hayoti, jamiyat va tarixiy jarayonlar haqida chuqur xulosalarga keladi. Yozuvchi uchun siyosiy g'oyalar yoki vaqtinchalik qarashlardan ko'ra, inson qalbi va uning kechinmalarini tasvirlash muhimroq edi. Shu bois Shukur Xolmirzayev asarlarida inson taqdiri, ruhiy kechinmalari va hayotiy haqiqatlar markaziy o'rin egallaydi. Adib o'z ijodi orqali inson qalbini anglash, uning quvonch va iztiroblarini badiiy tasvirlashni yozuvchining eng asosiy vazifasi deb bilgan.

Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi inson hayoti, ruhiy kechinmalari va tabiat bilan bog'liq munosabatlarni chuqur badiiy talqin etishi bilan ajralib turadi. Adib o'z asarlarida inson qalbining nozik jihatlari, jamiyatdagi muammolarni hamda tabiatning go'zalligi va unga bo'lgan munosabat masalalarini ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Yozuvchining **“O'n sakkizga kirmagan kim bor?”** qissasi ham yoshlar hayoti, muhabbat, adashish va hayotiy tajribalar orqali inson xarakterining shakllanishini yoritib beradigan muhim asarlardan biridir. Shukur Xolmirzayev ijodi o'zining samimiyligi, hayotiyliigi va chuqur falsafiy mazmuni bilan o'zbek nasrining rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning asarlari bugungi kunda ham kitobxonlar tomonidan qiziqish bilan o'qilib, insoniy qadriyatlar haqida mushohada yuritishga undaydi. Shu bois yozuvchining boy ijodiy merosi o'zbek adabiyotining ***muhim qismi sifatida qadrlanadi.***

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sh. Xolmirzayev Saylanma. 1-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati, 2013.
2. [Шукур Холмирзаев \(1940-2005\) — ziyouz.uz](http://ziyouz.uz)
3. [VATAN VA OZODLIK FARZANDI O'ZBEKISTON XALQ YOZUVCHISI SHUKUR XOLMIRZAYEV HAQIDA XOTIRALAR QISQA MUQADDIMA](#)

²⁵ [Shukur Xolmirzayev: Istaymanki, hamma rost gapirsa... & Kitoblari & O'n sakkizga kirmagan kim bor. Audiokitob | Xurshid Davron kutubxonasi](#)